



**SOCIO-CULTURAL PROCESSES IN THE SYRDARYA REGION IN THE
SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY - THE BEGINNING OF THE 21ST
CENTURY**

Abdumatov Alisher Axmatkulovich

GulDU Tarix kafedrası o'qituvchisi

Norqulova Nargiza Mamadjon qizi

Murtozova Oydiniso Asliddin qizi

Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mirzacho'l vohasining XX asr davomida ma'muriy-hududiy shakllanishi, demografik rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, sovet davrida amalga oshirilgan yerlarni o'zlashtirish siyosati, aholini majburiy va ixtiyoriy ko'chirish jarayonlari hamda ularning hududning etnik tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatining tashkil topishi, shaharlarning shakllanishi va aholi migratsiyasi bilan bog'liq jarayonlar ilmiy asosda bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Mirzacho'l, Sirdaryo viloyati, migratsiya, urbanizatsiya, demografiya, sovet siyosati, aholi ko'chirilishi, etnik tarkib, Guliston, Yangiyer.*

Аннотация: *В данной статье анализируются процессы административно-территориального формирования, демографического развития и урбанизации Мирзачульского региона в XX веке. Особое внимание уделяется политике освоения целинных земель в советский период, процессам добровольного и принудительного переселения населения, а также их влиянию на этнический состав и социально-экономическое развитие региона. Кроме того, рассматриваются вопросы образования Сырдарьинской области, формирования городов и миграционных процессов.*

Ключевые слова: *Мирзачуль, Сырдарьинская область, миграция, урбанизация, демография, советская политика, переселение населения, этнический состав, Гулистан, Янгийер.*

Abstract: *This article examines the administrative-territorial formation, demographic development, and urbanization processes of the Mirzachul region during the 20th century. Particular attention is given to the Soviet policy of land reclamation, as well as voluntary and forced migration processes and their impact on the ethnic composition and socio-economic development of the region. The study also analyzes the establishment of Syrdarya region, the formation of urban centers, and migration dynamics.*

Keywords: *Mirzachul, Syrdarya region, migration, urbanization, demography, Soviet policy, population resettlement, ethnic composition, Gulistan, Yangiyer.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



XIX asrning so'nggi o'n yilliklari va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligining muhim hududlaridan biri hisoblangan Mirzacho'l vohasi keyinchalik sovet davrida sezilarli ma'muriy-hududiy o'zgarishlarga duch keldi. XX asrning ikkinchi choragiga kelib, mazkur voha hududi asosan ikki qismga ajratilib, uning markaziy, shimoli-sharqiy va janubiy qismlari O'zbekiston SSR tarkibiga, g'arbiy hamda shimoli-g'arbiy hududlari esa RSFSR tarkibidagi Qozog'iston ASSRga birlashtirildi. Bunday ma'muriy taqsimot, vohaning geografik jihatdan yaxlitligiga qaramay, iqtisodiy jihatdan, ayniqsa, yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida muayyan murakkabliklarni keltirib chiqargan. 1960-yillarning boshlarida sovet rahbariyati tomonidan Mirzacho'l vohasini kompleks ravishda o'zlashtirish va boshqaruvni samarali tashkil etish maqsadida uni yagona ma'muriy hududga birlashtirish g'oyasi ilgari surildi. Ushbu tashabbus, avvalo, iqtisodiy zarurat bilan bog'liq bo'lib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ayniqsa sug'orma dehqonchilikni kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi kelishuv asosida hududlarning bir qismi qayta taqsimlanib, Mirzacho'l negizida yagona viloyat tashkil etildi. Mazkur viloyat tarkibiga nafaqat butun Mirzacho'l, balki Forish dashtining ayrim hududlari ham kiritildi. 1960-yillarda viloyatning umumiy maydoni 23 ming kvadrat kilometrdan ortiq bo'lib, uning hududi janubdan shimolga 180 km, sharqdan g'arbiga esa 210 km masofaga cho'zilgan edi. Qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy hajmi qariyb 1,93 million gektarni tashkil etgan bo'lib, shundan 300 ming gektari sug'oriladigan, 260 ming gektari esa lalmikor yerlar edi. Ma'muriy jihatdan hududda 63 ta kolxoz va 44 ta sovxoz faoliyat yuritgan, aholi soni esa 630 ming kishi atrofida qayd etilgan. Sovet davrida amalga oshirilgan keng ko'lamlı o'zlashtirish siyosati natijasida Mirzacho'l vohasining etnik tarkibi ham sezilarli darajada o'zgardi. Hududga Rossiya, Ukraina va Belarusdan ko'chib kelgan aholi soni ortdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqining turli hududlaridan — Qrim, Shimoliy Kavkaz va Ukraina mintaqalaridan majburiy ko'chirilgan qrim tatarlari, mesxeti turklari, qorachoy-bolqorlar hamda Uzoq Sharqdan koreyslarning O'rta Osiyoga deportatsiya qilinishi natijasida Mirzacho'lning yangi o'zlashtirilgan yerlari ko'p millatli hududga aylandi.

Mirzacho'lni o'zlashtirish siyosati ayniqsa 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab jadallashdi. 1956-yil 6-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston va Qozog'istonda paxta ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun Mirzacho'lning qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida"gi qaror bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur hujjatga muvofiq, 1956–1962-yillar davomida jami 300 ming gektar yerlarni sug'orish va o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, uning 200 ming gektari O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. 1956-yilning o'zida 205 ming gektar yangi yer o'zlashtirilib, ekin maydonlari 1917-yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan qariyb olti baravar oshdi. Natijada sug'oriladigan yerlarning umumiy hajmini 500 ming gektarga yetkazish ko'zda tutilgan. Keyingi bosqichda yana 130 ming gektar, yil yakuniga qadar esa 380 ming gektar qo'riq yerlarni o'zlashtirish rejalashtirildi, shundan 266 ming gektari O'zbekiston hududiga to'g'ri kelgan. 1958-yilgi qarorga muvofiq, Janubiy Mirzacho'l magistral kanali qurilishi boshlandi va 1964-yil oxiriga kelib uning 93 kilometrlik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



birinchi navbati foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha doirasida 20 million kub metrga yaqin yer qazish ishlari amalga oshirilib, ko‘plab gidrotexnik inshootlar barpo etildi. Mazkur kanalning ishga tushirilishi butun O‘rta Osiyoda qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish jarayonining muhim yutug‘i sifatida baholandi.

Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibida mahalliy xalqlar, xususan tojiklar muhim o‘rin tutadi. Vohaning sharqiy qismi O‘zbekistonning Sirdaryo viloyatiga qarashli Xovos tumani va Yangiyer shahri bilan bir qatorda Tojikiston Respublikasining Sug‘d viloyatidagi Zafarobod tumanini ham qamrab oladi. Bu holat Mirzacho‘l vohasining nafaqat tarixiy-geografik, balki etnik-madaniy jihatdan ham murakkab va o‘ziga xos hudud ekanligini ko‘rsatadi. Sharqiy Mirzacho‘l hududi tarixan Xo‘jand va O‘ratepa (hozirgi Istaravshan) viloyatlari bilan uzviy etnomadaniy aloqalarda rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Ushbu aloqalar natijasida vohada yashovchi aholi tarkibida, ayniqsa, tojik tilli guruhlar muhim o‘rin egallagan. Mirzacho‘lning qadimiy aholisidan biri bo‘lgan tojiklar XX–XXI asrlarga kelib vohaning deyarli barcha tumanlarida o‘ziga xos qishloq va mahallalarni shakllantirdilar. Dastlab asosan Xovos tumanida to‘plangan bu aholi keyinchalik Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani, Navoiy viloyatining Nurota hududi hamda Jizzax viloyatining ayrim qishloqlaridan ko‘chib kelgan tojik tilli guruhlar, shuningdek, Tojikistonning Istaravshan (O‘ratepa) hududidan kelgan aholi hisobiga sezilarli darajada ko‘paydi. Shu bilan bir qatorda, vohaning o‘zbek tilli aholisi orasida ham o‘z kelib chiqishini O‘ratepa mintaqasi bilan bog‘lovchi qatlam mavjudligi etnik-madaniy aloqalarning chuqurligidan dalolat beradi.

XX asrning o‘rtalariga kelib, xususan 1950-yillarda Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti va Ministrlar Sovetining 1949-yil 15-apreldagi “Mirzacho‘lni o‘zlashtirishni davom ettirish choralari to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim dasturiy hujjat bo‘ldi. Mazkur siyosat doirasida yoshlarni jalb etish masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining XII s‘ezdida komsomol a‘zolari hamda yoshlar Mirzacho‘l yerlarini o‘zlashtirishga faol safarbar etildi. Andijon yoshlari tomonidan ilgari surilgan tashabbus keng qo‘llab-quvvatlanib, Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlari yoshlari tomonidan ham davom ettirildi. 1950-yillarda olib borilgan “ko‘chirish siyosati” natijasida vohada yangi aholi maskanlari vujudga kela boshladi. 1957-yilda turli viloyatlardan 12 mingdan ortiq xo‘jaliklarning Mirzacho‘lga ko‘chib kelib joylashuvi ushbu jarayonni yanada jadallashtirdi. Bu siyosat, asosan, mamlakatning aholi zich joylashgan hududlaridan oilaviy tarzda cho‘l zonalariga ko‘chirish orqali amalga oshirildi va natijada vohada demografik o‘shish keskin tezlashdi. Jumladan, 2-Boyovut sovxoziga ko‘chirilgan xo‘jaliklar soni 1950-yilda 150 ta, 1951-yilda 110 ta va 1952-yilda 133 tani tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar migratsiya jarayonlarining izchil davom etganini ko‘rsatadi.

1960-yillarga kelib Mirzacho‘lni yirik iqtisodiy hududga aylantirish bo‘yicha davlat siyosati yanada kuchaydi. Bu jarayonda 1963-yilda Sirdaryo viloyatining tashkil etilishi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Avvaliga, 1963-yil 24-yanvarda Qozog‘iston SSR Oliy Soveti Prezidiumining ayrim hududlarni O‘zbekiston SSRga o‘tkazish to‘g‘risidagi farmoni qabul





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qilinib, 26-yanvarda O'zbekiston SSR tomonidan tasdiqlandi. Shu asosda 1963-yil 16-fevralda Mirzacho'lining qo'riq yerlarini o'zlashtirish negizida Sirdaryo viloyati tashkil etildi. Dastlab viloyat markazi sifatida Yangiyer shahri belgilangan bo'lsa-da, qisqa muddat ichida Guliston shahri ma'muriy markazga aylantirildi. Mirzacho'lni o'zlashtirish natijasida shakllangan muhim shaharlar qatorida Yangiyer alohida o'rin tutadi. 1957-yilda barpo etilgan ushbu shahar sanoat markazi sifatida rivojlanib, unda lotok ishlab chiqaruvchi zavod qurildi hamda yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu esa nafaqat O'zbekistonning turli hududlaridan, balki boshqa ittifoqdosh respublikalardan ham malakali mutaxassislarning jalb qilinishiga olib keldi. Natijada, shahar aholisi dastlab 25 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik 50–60 ming kishigacha yetdi.

Guliston shahri ham Mirzacho'l vohasining tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan aholi maskanidir. Uning shakllanishi XIX asr oxirlariga borib taqaladi. Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, 1895-yilgacha bu hudud asosan qamishzor va yantoqzor bo'lgan. Toshkent–Krasnovodsk temir yo'lining qurilishi bilan bu yerda temir yo'l stansiyasi barpo etilib, dastlab "Achchiq quduq" nomi bilan atalgan. Keyinchalik u Griboedovka deb nomlanib, temir yo'l infratuzilmasining rivojlanishi natijasida stansiya atrofida kichik posyolka shakllangan. Shu tariqa Guliston shahri keyinchalik yirik ma'muriy va iqtisodiy markazga aylanishi uchun zarur tarixiy asoslar yaratilgan. Mazkur aholi maskani dastlab Duxovskaya nomi bilan yuritilgan bo'lsa-da, mahalliy aholi orasida u ko'proq Mirzacho'l nomi bilan tanilgan. Natijada 1905-yilda temir yo'l stansiyasiga ham rasman "Mirzacho'l" nomi berildi. 1914-yilga kelib posyolkada mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan bo'lib, 1917-yilgacha u ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatining Xo'jand uezdiga qarashli edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng esa ushbu hudud Turkiston Avtonom Respublikasi tarkibidagi Sirdaryo viloyatining Golodnostep uezdiga o'tkazildi. 1926-yilda aholi sonining uch mingdan oshishi natijasida Mirzacho'l tumani markazi maqomini oldi va Toshkent viloyati tarkibiga kiritildi. Keyinchalik, 1952-yilda unga shahar maqomi berildi, 1959-yilda esa "Guliston" nomi rasman joriy etildi. 1959-yilga kelib shahar aholisi 8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1963-yildan boshlab u Sirdaryo viloyatining ma'muriy markaziga aylandi.

1970-yillarga kelib Mirzacho'l vohasini o'zlashtirish jarayonlari yanada kengayib, yangi aholi punktlari soni ortdi. Xususan, 1972-yilda viloyatlararo migratsiya natijasida Sirdaryo viloyatiga turli hududlardan ko'plab aholi ko'chirib keltirildi: Andijondan 258 kishi, Buxorodan 82 kishi, Qashqadaryodan 81 kishi, Namangandan 65 kishi, Samarqanddan 885 kishi, Surxondaryodan 18 kishi, Farg'onadan 280 kishi, Xorazmdan 37 kishi, Toshkent viloyatidan 810 kishi, Qoraqalpog'istondan 25 kishi va Toshkent shahridan 400 kishi joylashtirildi. Bu jarayonda ayniqsa Samarqand viloyatidan kelganlar soni salmoqli bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida jalb etilgan edi. Aholini Mirzacho'l vohasiga ko'chirish siyosatining keng tus olishi ko'p jihatdan uning ixtiyoriy-majburiy xarakterga ega bo'lganligi hamda sovet davlati tomonidan strategik ahamiyat kasb etgan hudud sifatida ko'rilgani bilan izohlanadi. Ko'chirish siyosatida, ayniqsa, aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tog'oldi hududlarida yashovchi aholini yangi o'zlashtirilayotgan yerlarga ko'chirishga ustuvor ahamiyat berildi. 1970-yillarda ushbu hududga ittifoqdosh respublikalardan ham aholi oqimi kuzatildi. Bu jarayon sovet mafkurasidagi "internatsionalizm" g'oyasi bilan bevosita bog'liq edi. Jumladan, Qirg'izistondan 170 kishi, Tojikistondan 254 kishi, Turkmanistondan 70 kishi, Qozog'istondan 1051 kishi, Belarusdan 14 kishi, Moldovadan 7 kishi, Armanistondan 1 kishi, Ozarbayjondan 36 kishi, Gruziyadan 13 kishi, Ukrainadan 149 kishi, Rossiyadan 1847 kishi hamda Boltiqbo'yi respublikalaridan kam sonli aholi Sirdaryo viloyatiga ko'chirib keltirildi. Bu esa vohaning etnik tarkibini yanada rang-baranglashtirdi. Biroq 1980-yillarga kelib migratsiya jarayonlari sezilarli darajada sekinlashdi. Bunga sobiq ittifoq miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul, shuningdek "qayta qurish" va "oshkoralik" siyosatlarini fonida kuchaygan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik sabab bo'ldi. Natijada hududlararo aholi ko'chishi deyarli to'xtab qoldi. 1990-yillar boshida Sovet Ittifoqining parchalanishi ortidan rus tilli aholining bir qismi tarixiy vatanlariga ko'chib ketishi viloyat demografik holatiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1998-yilda Sirdaryo viloyatidan Rossiya Federatsiyasiga 1336 kishi ko'chib ketgan bo'lsa, aksincha kelganlar soni atigi 51 kishini tashkil etgan. Ko'chib ketganlar tarkibida ruslar bilan bir qatorda ukrain, tatar, koreys va boshqa millat vakillari ham salmoqli o'rin egallagan.

XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l vohasida aholi sonining ortishi asosan urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechdi. Tadqiqotlarga ko'ra, 2009-yilgacha Sirdaryo viloyatida 5 ta shahar va shuncha shaharcha mavjud bo'lib, ularda jami aholining 31,1 foizi istiqomat qilgan. 2010-yilga kelib esa urbanistik o'zgarishlar natijasida shaharchalar soni 25 taga yetib, urbanizatsiya darajasi 43,2 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, viloyat markazi Guliston shahri aholisi umumiy viloyat aholisining qariyb 10 foizini tashkil etib, bu ko'rsatkich respublikaning boshqa hududlariga nisbatan past darajada saqlanib qolgan. Mazkur holatning asosiy sabablaridan biri sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida rus tilli aholining migratsiyasi, shuningdek, hududning tabiiy-iqlimiy sharoitlari va sanoatlashuv darajasining nisbatan pastligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, 2010-yilda viloyatda 72,2 ming qishloq aholisi shahar aholisi toifasiga o'tkazilgan bo'lib, bu jarayon ayniqsa Oqoltin, Sirdaryo va Sayxunobod tumanlarida yaqqol kuzatilgan. Biroq Xovos va Sardoba tumanlarida bunday o'zgarishlar amalga oshirilmagan.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyatida yirik shaharlar tarmog'ining shakllanmaganligi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir. Viloyatda "yuz minglik" shaharlarning yo'qligi, hatto markaz hisoblangan Guliston shahrining ham bu ko'rsatkichga yetmaganligi ushbu mintaqaning urbanistik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Bu esa o'z navbatida shahar hosil qiluvchi omillarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдунабиев А. Ф. Мирзачўлнинг бугуни, эртаси. – Тошкент, 1964. – Б. 14.
2. Базарбаев А.М. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 108.
3. Эрбўтаева Ў., Сангирова Д. Алибеков У., Ўрмонов Ҳ. Қатағон курбонлари Сирдарё вилояти мисолида. – Б.114- 127.
4. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи ..., б. 15-16.
5. Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 53.
6. Abdumatov, A. A., qizi Xaydarova, M. L., & qizi Abdug'afforova, S. S. (2026, March). NOMADIC RESIDENTIAL CULTURE OF THE POPULATION OF THE MIRZACHUL OASIS. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 2, No. 3, pp. 43-46).
7. Abdumatov, A. A., & qizi Abdug'afforova, S. S. (2026). HOLY PLACES AND PILGRIMAGES OF JIZAKH REGION. *Integration of Innovative Education and Training*, 2(2), 9-19.
8. Axmatkulovich, A. A. (2025, November). O'ZBEKLARDA GENDER MUNOSABATLARINING OILAVIY VA NIKOH MAROSIMLARIDA IFODA ETILISHI MASALASIGA DOIR. In *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES* (Vol. 1, No. 5, pp. 191-195).
9. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.
10. Абдуматов, А. (2024). АКАДЕМИК АР МУҲАММАДЖОНОВНИНГ ТОПОНОМИКА ФАНИ РИВОЖИДАГИ РЎЛИ. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
11. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.